

O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI*Muhammadjonova O'g'iloy Baxodirjon qizi**FarDU talabasi**Egamberdiyev Oyatillox Alisher o'g'li**FarDU talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda madaniyatva san'at tarixi, madaniyat va san'atning kirib kelishi shuningdek, madaniyat va san'at haqida buyuk mutafakkirlarimizning fikrlari bayon etilgan va hozirgi kunda madaniyat va san'atning roli yoritib berilgan

Kalit so'zlar: madaniyat va san'at, kinometrografiya, ma'rifatparvarlik, ilm va maorif, xorografiya, konkrethissiy.

Madaniyat tushunchasi, inson faoliyati va shu faoliyatning ahamyatini belgilovchi, ramziy qurilmalar va asarlar majmuasidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir me'morchilik, teatr, kinomatografiya sohalarida namoyon bo'lishi mumkun. Lekin madaniyat so'ziga chuqurroq e'tibor beradigan bo'lsak, bu atama tabiat, jamiyat va insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beruvchi ko'plab qarashlar, nazaryalar va g'oyalarga, tushuncha va tassavurlarga nisbatan qo'llanishi mumkun. Madaniyat haqida 20 asrning 50-yillarida amerikalik madaniyatshunos olimlar Alfred Kebar va Klayd Klakxonlar o'zlarining "Madaniyat tushuncha va ta'riflar" nomli asarida madaniyatning 164 ta ta'rifi mavjud ekanligi ko'rsatib o'tadilar. Madaniyat tushunchasi dastlab atama sifatida, vujudga kelgani bilan hali jamiyatning moddiy va ijtemoiy hayotini, odamning ongli mavjudot sifatidagi insonoylik qiyofasini anglatmas edi. Markaziy Osiyolik buyuk tafakkur egalari madaniyatlilik masalasiga insonning ruhiy- ma'naviy kamoloti, ong va tafakkur taraqqiyoti, fozil jamiyat va komil insonlar masalasi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yondashdilar. San'at ham madaniyatning bir bo'lagi deyish mumkun. San'at eng avvalo, ijtemoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at qadimiylar tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridan mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtemoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kelgan. San'atning dastlabki yillari mill.avv. 40-20- ming yillikka borib taqaladi. U davrda hali san'at mustaqil fan sifatida ajralib chiqmagan edi. Keyinchalik, madaniyatning o'sishi natijasida san'at alohida fan sifatida ajrala boshladi. San'atni tushunish uning kishilar hayotidagi o'rnini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida, jiddiy bahslarga sabab bo'lgan. Madaniyat va san'at sohasi o'rta asr allomalarimiz ham katta hissa qo'shishgan.

Jumladan, Abu Ali Ibn Sino, Beruniy kabi allomalarimiz boshqa shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. 19 asrning ikkinchi yarmida

maydonga kelgan ma'rifatparvarlik g'oyalari namayondalari, Muqimiy, Zavqiy, Ahmad, Furqat, Avaz O'tar kabi olimlarimiz xalqni madaniyatli qilishning omili ilm ma'rifatni egallashda deb bildilar. Ular o'rtasidagi qarshi xalq o'rtasida ilm va maorif va madaniyatni zo'r ehtiros bilan targ'ib qildilar. San'at sohasi turli ko'rinishlar bilan o'ziga xos badiiy estetik qadriyatlarni to'palab, saqlash va boshqalarga uzatish xususiyatiga ega bo'lgan estetik tizimni tashkil etadi. San'at tasviri san'at, me'morchilik, rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoregrofiya va boshqalarni o'z ichiga oladi. San'atning turlari va predmeti tasvir vositalari va ifoda imkoniyatlari jihatidan bir- biridan farq qiladi. Masalan, adabiyotda asosiy vosita bo'lib, til xizmat qiladi; tasviri san'atda bo'yoq orqali kankrethissiy obraz gavlantiriladi, teatrda pyesa qaxramonlarining siyoshi o'z aksini topadi. San'at barcha ijtmoyi ong shakllari singari o'z taraqqiyot qonuniyatlariga ega. Yevropa uyg'onish davrning buyuk ijodkorlari Lenardo da Vinchi, Rafel Santi, Mikelanjalo, Dyurer Servants, Shekspir va boshqalar san'atning rivojlanishiga katta hissa qoshganlar.

Ayniqsa buyuk musavvir, iste'dodli, muhandis, atoqli tabiatshunos olim Da Vinchi qarashlarida dunyoni bilishda san'atning ahamiyatiga uning o'ziga xos xusiyatlari e'tibordan qochirmaslikka harakat qiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, hayotning barcha sohalarida bo'lganidek madaniyat va san'atning keng rivojlanishi uchun katta imkonoyatlar ochildi. Xalqimizning ma'naviy qadriyatlari hurmat bilan munosabatda bo'lismi, ularni asrab –avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz, urf- odatlarimizni, tarixiy, ilmiy, madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning madaniyat va san'at haqida bir qancha farmon va farmoyishlari qabul qilingan. Bu farmonlaridan biri: -aholi, ayniqsa olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish, darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va kansert tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarning izlab topish va qo'llab – quvvatlash, bu ta'lim muassasalarida, milliy cholg'ular, musiqa darsliklari ni yaratishdir.

"Davlat tili to'g'risidagi", "O'zbekiston Badiiy Akademiyasi" (1997), O'zbek milliy akademik drama teatri" (2002), Estrada musiqani rivojlantirshdagi boshqa bir qancha qonun va farmonlarning qabul qilinishi, bir qancha mutafakkir va allomalarimizning muqaddas nomlari tiklanib, yubileyлari xalqaro miqyosda keng nishonlanayotgani davlatimiz tomonidan madaniyat va san'atning rivojlantirishga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning amaliy ifodasidir. Sobiq sho'ralar davrida madaniyat asosan kommunistik g'oyalarni targ'ib qilish, o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun kerak edi. Kommunistlar mamlakatda o'ziga xizmat qiladigan va mavqeyini mustahkamlaydigan sotsialistik madaniyatni rivojlantirish uchun mablag' ayamasdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, demokratik fuqarolik , odil jamiyat qurish maqsad qilib olindi. Madaniyat komil insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Bu borada ulkan tarixiy va jahonshumul ishlar amalga oshirildi.

Jumladan:

- qadimiy tariximizning haqqoniy, chuqur va har tomonlama o'rganilishi, tarixiy mavzudagi sovet davrida taqiqlangan asarlarning chop etilishi xalqimiz milliy – tarixiy ongini shakllantirishda muhim rol o'yamoqda;

- sho'rolar davrida man qilingan yoki cheklangan madaniy qadriyatlar; tarixiy xotira, milliy ong, milliy ruh, diniy e'tiqodlar, xalq odatlari, davlat tili, xalq ijodi, milliy o'yinlar, tarixiy me'morchilik san'ati, ko'pgina an'anaviy ijodiy turlar tiklandi;

- xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro'z, Ro'za hayiti, Qurban hayiti kabilar) ning joriy etilishi xalq ma'naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag'ishlamoqda;

O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan Toshkent kinofestivali, "Sharq taronalari", "Teatr festivali", "Simfonik musiqa festivali", kabi xalqaro anjumanlar ham madaniyat bayramlari sifatida xalqimiz qalbidan joy olib ulgurdi. Mustaqillik sharofati bilan madaniyat va san'atning xalqaro nufuzi osha boshladi. Eng ,avvalo ajdodlarimiz merosini tiklash bo'yicha qilinayotgan keng ko'lamli ishlarimizni jahon hamjamiyatlari tan olmoqda. Bu boradigi olamshumul kashfiyotlarni o'rganish uchun dunyoning ko'pgina mamlakatlari, chunonchi, Amerika, Norvegiya, Gollandiya , Olmoniya, Turkiya kabilardan tashrif buyurgan mutaxassis olimlar ham amalga oshiralayoygan ishlarga tahsin aytmoqdalar.

O'zbek san'ati jahonga tanilmoqda, ko'plab folkor jamoalari, jumladan, Toshkentning "Kamalak", Andijonning "Sumalak" , Xorazmning " Meros" , kabi folkor – etnografik ansambillari xorijiy mamlakatlarga tashrib buyurib, xalqaro anjumanlarda qatnashib, ajnabiylar e'tiboriga nodir san'atimiz durdonalarini havola etishmoqda. Chet ellarda o'zbek xalqi madaniyati va ijodiga oid ko'plab kitoblar, maqolalar chop etilmoqda. Vatanimizda xalq madaniyatini va san'atini taraqqiy ettirish borasida ulkan tarixiy ishlar amalga oshirilganini butun jahon tan olmoqda. Shuni bemalol aytishimiz mumkunki, mustaqil O'zbekistonimizda madaniyat va san'atning yangi mustahkam poydevori yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.U.Mansurov, A.Sh. To'xtaboyev , "O'zbekistonning madaniyat va san'at tarixi" Toshkent 2021.
2. Usmon Qoraboyev, G'ayrat Soatov "O'zbekiston madaniyati, "Tafakkur Bo'stoni" Toshkent 2011.
3. N.Abdullayev "O'zbekiston san'ati tarixi" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashryoti . Toshkent 2007.

4. Karimov I.A. O'zbekiston :milliy istiqlol ,iqtisod, siyosat ,1-j T.1996 Ma'naviy yuksalish yo'lida .
5. M.Mahmudov va U.Tuychiyev tarjimasi T.1980.
6. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot.-T.: "Fan". 2005.
7. Iqboljon O'g'li, Tojimamatov Jamshidbek, and Egamberdiyev Oyatillokh Alisher o'g'li. "THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON." PEDAGOGS jurnali 9.3 (2022): 4-7.
8. Khakimov, M. K., & ugli Melikuziev, A. L. (2022). The History of Paralinguistic Researches. *International Journal of Culture and Modernity*, 13, 90-95.
9. Akhmedov, A., and O. Egamberdiyev. "PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS." Science and innovation 1. B4 (2022): 136-138.
10. Alisher o'g'li, Egamberdiyev Oyatillokh. "Issues of Retraining and Professional Development of Pedagogical Personnel." The Peerian Journal 5 (2022): 192-194.
11. Tojimamatov, Jamshidbek, and Oyatillokh Egamberdiyev. "THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON." Eurasian Journal of Academic Research 2.5 (2022): 470-473.